

# **“Ogohlik davr talabi” mavzusida davra suhbatı.**

Joriy yilning 18 aprel kuni, Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida «Ogohlik davr talabi» mavzusida davra suhbatı bo‘lib o‘tdi. Tadbir universitet talabalari ishtirokida, Olmazor Tumani 4-sonli IIB, universitet katta profilaktika inspektori, podpolkovnik Yusupov Sh.N. tashabbusi bilan, Olmazor tumani Axborot Tehnologiyalari sohasidagi kiber jinoyatlarga qarshi kurash bo‘limi xodimi kapitan Yarmatov Sh.X, Olmazor Tumani 4-sonli IIB, profilaktika inspektori, leytenant Ismoilova A.F lar hamkorligida o‘tkazildi. Shuningdek, tadbirda universitet yoshlar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i G.Allamova, universitet oila xotin-qizlar masalalari bo‘yicha rektor masalaxatchisi, tyutor F.Nabixanova hamda universitet psixologi N. Bo‘rixonovalar ham ishtirok etdi.

Tadbir doirasida so‘zga chiqqanlar,

1) “KIBERXAVFSIZLIK” va xanuzgacha uning domiga tushayotganlar, bu illatdan qanday qutulish mumkinligi, o‘zimizda unga qarshi immunitetni shakllantirishimiz zarurligi xaqida so‘z bordi.

2) Tazyiq va zo‘ravonlikka qarshi kurash

3) Korrupsiya holatlarini oldini olish va unga qarshi kurash

4) Jinoyatchilik va giyohvandlikka qarshi kurash mavzularida so‘z yuritdilar.

Qizg‘in davom etgan davra suhbatida talabalar o‘zlarining qiziqtirgan savollariga atroflicha javob oldilar.







